

## FARZONA SHE'RLARIDA MIF HAMDA XALQ RIVOYAT VA AFSONALARIDAGI OBRAZLARNING BADIY TALQINI

Mirzoyev M.K

*FarDU tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola Farzoda she'riyatida mif va rivoyat, shuningdek afsonalardagi obrazlarning badiiy talqinini tahlil etishga bag'ishlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *she'r, mif, afsona, rivoyat, obraz.*

Akademik V.V.Vinogradov: “Xalqning og‘zaki badiiy ijodi va uning tili buyuk birlashtiruvchi madaniy kuch va milliy integrasiya omili bo‘lib xizmat qildi” deya ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Eron adabiyotshunosi Ali Faraj xalq og‘zaki ijodi va adabiyotning o‘zaro ta’sirini tadqiq qilib, shunday xulosaga keladi: “Folklor va adabiyot xoh Eronda, xoh Angliyada yoki Rossiyada bo‘lsin, bir mamlakatda, bir milliy tilda, bir milliy tarix asosida paydo bo‘lib, rivojlangan onlardan boshlab o‘zaro yaqin bo‘lgan”<sup>2</sup>.

Har bir davr adabiyoti o‘zining siyosiy-ijtimoiy voqealari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning taraqqiyoti, evolyusiyasi ana shu omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Farzona she’ri ustozı Loiqlning, Loiql she’ri o‘zining ustozı Tursunzoda she’rlaridan farq qiladi. Mustaqillikdan oldingi davr adiblari og‘zaki adabiyot unsurlari, ayniqsa, mifologik, diniy va xalq e’tiqodlaridan o‘sha davrdagi hukmron mafkura talablaridan kelib chiqib, foydalanishga majbur edilar<sup>3</sup>. Shu bois «Ayniy, Lohutiy, Payrav, Habib Yusufiy, Tursunzoda va boshqalarning maktabidan ta’lim olgan shoirlar she’riyatida bu yo‘nalish (diniy. M.M) kuzatilmaydi»<sup>4</sup>.

Xalqimizning mifologik tasavvurlari negizida shakllangan epik motivlar va obrazlardan ijodiy foydalanish Farzona ijodida davom etmoqda. Shoira she’larida qo‘llangan mifologizmlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Qadimgi oriyoyi qavmlar, jumladan, tojik mifologizmlari.* Oriyoyi miflarning ham asosiy mazmun-mohiyatini ezgulik (Zardusht, Hurmuzd, Farishta va ...) va yovuzlik (Axriman, Shayton, Iblis va...) o‘rtasidagi murosasiz kurash tashkil etadi. Ushbu azaliy va abadiy antogonizm (murosasiz ziddiyat) Farzona she’rlarining asosiy mavzularidan sanaladi. “Milliy qadimiy miflarda Zahhok boshidanoq nurga –

<sup>1</sup> Виноградов В. Великий русский язык. – Москва, 1945, – С. 100.

<sup>2</sup> Фарадж А В. Взаимодействие и взаимовлияние фольклора и литературы. <https://www.dissercat.com/>

<sup>3</sup> Асрорӣ В, Амонов Р. Эчодиёти даҳанакии халқи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1980. – С. 15-30.

<sup>4</sup> Сагторзода.А. Аз Рӯдакӣ то Лоик. – Душанбе: Адиб, 2013. – С. 158-159.

ezgulikka dushman, zulmatning – yovuzlikning homiysi bo‘lgan”<sup>5</sup>. Farzona she‘rlarida ko‘p uchraydigan “subh” (tong), “xurshed” (quyosh), “nur” so‘zlari va ularning sinonimlari ko‘p hollarda yorug‘lik, ezgulik va poklik timsoliga (ahuroi) aylanib, yovuzlik va zulmat timsoli – Ahreman va Zahhokka qarshi qo‘yiladi. Quyidagi baytda Farzona o‘z davrining ijtimoiy muammolarini ezgulik tivsoli – Faridun va yovuzlik obrazi – Zahhok asosida yuksak badiiyat bilan ta‘sirchan ifodalaydi:

*Faridun to‘qmog‘i yanglig‘ yo‘qlikka*

*Uloqqanda quyosh,*

*Zulmat **Zahhoki***

*Chaldi g‘alabaning nog‘orasini.*

*Ey, tun, ey gazanda zulmat, men bukun*

*Yulduzsizdan ko‘ra yulduzsizroqman...*

*Lymon go‘ri uzra nag‘ora qoqing,*

*O‘ynaylik,*

*Ey, **shayton** merosxo‘rlari!*<sup>6</sup>

“Sarvi Kishmar” she‘rini shoir Zardushtning afsonaviy Kishmar sarvi daraxti va oshiq yigit – Shahriyor asosida yaratilgan qiziqarli va ibratli hikoyasidir:

*Ба нахлаш **Сарви Кишмар** ном бинҳод,*

*Ба саври қудсии боғи биҳиштӣ.*

*Ба он сарве, ки чун “Занд”-у “Авесто”*

*Бувад эҷоди халқи зардуштӣ..<sup>7</sup>. (Mazmuni: “Zand” va “Avesto” kabi Zardusht xalqi ijodi bo‘lgan daraxtiga “Sarvi Kishmar” deb nom quydi)*

Farzona she‘rlarida Jamshid, Faridun, Rostam, Raxsh, Siyovush kabi mif va afsonalarga xos obrazlar yangicha ijodiy talqinda gavdalanadi.

2. *Diniy e‘tiqodlar bilan bog‘liq mifologik va ta‘rixiy siymolar. **Odam Ato** va **Momo Havo*** she‘riy timsollar, badiiy tasvirning eng ko‘p ishlatiladigan obrazlaridan hisoblanadi. Biroq, fikrimizcha, quyidagi misralarda ifodalangan shoirona tafakkurning analogi tojik she‘riyatida bu tarzda uchramaydi:

*Бияндешам, кӣ буд он ки Худоро бештар ранҷонд,*

*Гунаҳкори **Одам** ё гуноҳомӯзии **Хавво**...<sup>8</sup> (Mazmuni: *Xudoni kim ko‘proq ranjitdi: Odam Atoning gunohkorligi yo Havoning gunoh qilishga o‘rgatishimi?*)*

3. *Barhayot ta‘rixiy, ilmiy va adabiy siymolar* Farzona she‘riyatining badiiy va g‘oyaviy saviyasini yuksaltiradi, o‘quvchini ezgulik va yaratuvchanlik sari chorlaydi:

***Исои** башоратовару фардо бош,*

<sup>5</sup> Сирус III. Тарҳи аслии достони Рустам ва Исфандиёр. –Техрон, 1369. – С.23

<sup>6</sup> Фарзона. Ишқ тасбеҳи. Одил Иқром таржимаси. –Хужанд, 2017. С. 98.

<sup>7</sup> Фарзона. Ҳама гул, ҳама тарона. – Хучанд: Хуросон-медиа, 2014. Ҷилди 1. – С. 94.

<sup>8</sup> Кўрсатилган манба, – С. 119.

*Синои саломатовари дунё бош<sup>9</sup>. (Mazmuni: Erataning bashorat keltiruvchi Isosi, dunyoning salomatlik keltiruvchi Sinosi bo'l.)*

*Дар ин ҷамоаи бешиққо намегунҷам,*

*Ба дашт меравам охир чу вориси Маҷнун<sup>10</sup>. (Mazmuni: Bu ishqsizlar jamoasiga sig'tayin, Majnun misoli sahroga ketarmen.)*

*Айби нодилбариям буд, ки Ширин нашудам,*

*Навтавонистамат, эй хоҷа, ки Фарҳод кунам<sup>11</sup>. (Mazmuni: Dilbar bo'lmaganim aybi bilan Shirin bo'lolmadim, ey hojam, kechirgil, seni Farhod qilolmadim.)*

Farzona she'rlari mifologik diniy obrazlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Birgina ikki jilddan iborat “Hama gul, hama tarona” she'rlar to'plamida Zardusht – 12, Hormuzd – 8, Axuro (ahuroi) – 35, farishta – 38, Iso – 28 (Isi, Iso, Maseho shakllarida) Maryam – 22, Ahriman – 4, Zahhok – 5, shayton – 19, Iblis – 4 va subh (tong) – 576, xurshed (quyosh) – 405, nur – 194 kabi so'zlar ko'proq majoziy ma'nolarda ishlatilgan. Milliy, madiniy, ta'rixiy miflar zaminida she'rlarining badiiy-g'oyaviy saviyasini oshira olgani, irfoniy ishq va ezgulik qudrati, uning ahamiyati, axloqiy-psixologik jihatlari e'tiborga olingani bilan ahamiyatlidir.

Хулоса, tasavvufiy tafakkur, irfoniy ishq va diniy e'tiqodlar Farzonaning barcha asarlarini qamrab olgani bois, uning she'rlarida Xizr, Yunus, Sulaymon, Yusuf, Buddo, Somiriy kabi payg'ambar va diniy siymolar badiiy tasvir betakrorligi va tafakkur teranligini ta'minlash, lirik qahramonning maqsadi, holati va ruhiy kechinmalarini ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Farzona oxirat, jannat, do'zax, gunohu savob haqida hikoya qiluvchi musulmon yoki esxatologik afsonalardan ham mohirona foydalangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Асрорӣ В, Амонов Р. Эҷодиёти даҳанакии халқи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1980.
2. Виноградов В. Великий русский язык. – Москва, 1945, – С. 100.
3. Фарадж А В. Взаимодействие и взаимовлияние фольклора и литературы. [https://www.dissercat.com./](https://www.dissercat.com/)
4. Сирус Ш. Тарҳи аслии достони Рустам ва Исфандиёр. –Техрон, 1369.
5. Фарзона. Ишқ тасбеҳи. Одил Икром таржимаси. –Хучанд, 2017.
6. Фарзона. Ҳама гул, ҳама тарона. – Хучанд: Хуросон-медиа, 2014. Ҷилди 1.

<sup>9</sup> Кўрсатилган манба, – С. 371.

<sup>10</sup> Фарзона. Ҳама гул, ҳама тарона. – Хучанд: Хуросон-медиа, 2014. Ҷилди 1. – С. 259.

<sup>11</sup> Фарзона. Ҳама гул, ҳама тарона. – Хучанд: Хуросон-медиа, 2014. Ҷилди 2. – С. 123.

7. Фарзона. Ҳама гул, ҳама тарона. – Хучанд: Хуросон-медиа, 2014. Чилди 2.
8. Сатторзода А. Аз Рӯдакӣ то Лоиқ. – Душанбе: Адиб, 2013. – С. 158-159.
9. Мирзоев М. Арзиши бадеӣ ва аҳамияти ғоявӣ инъикоси боварҳо ва маросимҳои динӣ дар ашъори Фарзонаи Хучандӣ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2023.
10. Latipov, A. K., & Fattohov, X. X. (2021). THE USE OF WORDS FROM THE ARABIC LANGUAGE IN THE POEM " INSON". *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 281-283.
11. Xayrulloevich, F. X. (2022). BADIY MATNDA MAQOL VA MATALLARDAN FOYDALANISH XUSUSIDA (A. QAHHOR ASARLARI MISOLIDA). *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 303-308.
12. Fattohov, K. K., & Umarova, N. R. (2021). THE USE OF ARABICISM IN THE WORKS OF NAVOI. *Theoretical & Applied Science*, (4), 426-428.
13. Vakhobovna, A. Z., & Xayrulloevich, F. X. (2022). About Borrowing Phrazeological Units and their Study in Uzbek Language.
14. Mahliyo, S., & Do'smatov, X. (2023). About Some Phonostylistic Features of Amateur Speech. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18, 18-21.
15. Дусматов, Х., & Фаттоҳов, Х. (2023). “ОЛТИН БЕШИК” ВА “САНГИ ОИНА” РИВОЯТЛАРИ: ТАРИХИЙ ҲАҚИҚАТ ВА БАДИИЙ ТЎҚИМА. *Scientific progress*, 4(2), 200-208.
16. Дусматов, Х. (2022). ҚИЗИҚЧИЛАР НУТҚИДА СЎЗ ЎЙИНЛАРИ ИФОДАЛАНИШИ. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(24), 27-31.
17. Dusmatov, H. H. (2022). DIFFERENT FORMS OF SPEECH AND WORD GAMES CHARACTERISTIC OF ARTISTIC ARTS THEIR TYPES. *Gospodarka i Innowacje.*, 27, 134-137.
18. Dusmatov, H. H. (2022). Expression of Word Games in Uzbek National Anecdotes. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 1(1), 11-16.
19. Dusmatov, X. H. (2022). About Uzbek National Word Games. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(3), 57-62.
20. Xaitboyevich, D. H. (2022). ABOUT SOME LINGUISTILISTIC FEATURES OF THE TEXT OF UZBEK NATIONAL ANECDOTES. *Gospodarka i Innowacje.*, 27, 56-59.
21. Dusmatov, H. H. (2022). STUDY OF JOKES AND THEIR TEXTUAL CHARACTERISTICS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(08)*, 82-85.

22. Дусматов, Ҳ. Ҳ. (2022). ЎЗБЕК МИЛЛИЙ СЎЗ ЎЙИНЛАРИНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(5), 5-9.

23. Дусматов, Ҳ., & Фаттоҳов, Х. (2023). “ОЛТИН БЕШИК” ВА “САНГИ ОИНА” РИВОЯТЛАРИ: ТАРИХИЙ ҲАҚИҚАТ ВА БАДИИЙ ТЎҶИМА. *Scientific progress*, 4(2), 200-208.

